Temuriy malika Gavharshod begimga bag‘ishlangan Xalqaro simpozium

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, nafaqat temuriy hukmdorlar, balki temuriy malikalar ham iste’dodli siyosatchi, yetuk olima va xassos shoira bo‘lganliklariga ishonch hosil qilamiz. Ular tarix zarvaraqlarida o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirganlar. Ana shunday malikalardan biri Temuriylar davrining benazir malikasi, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi, Mirzo Ulug‘bekning volidasi Gavharshod begimdir.Gavharshod begim Hirot malikasi bo‘lganligi uchun ham uning o‘zbek va afg‘on xalqlarining mushtarak tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir.

2018-yil 14-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Xalqaro Amir Temur hayriya jamoat fondi hamda O‘zbekiston-Afg‘oniston do‘stlikjamiyati bilan hamkorlikda Gavharshod begimga bag‘ishlangan **“Temuriy malika Gavharshod begimning hayoti va faoliyati”** mavzuida Xalqaroilmiy-amaliy simpozium o‘tkazildi.

Simpoziumni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Baxtiyor Sayfullayev, O‘zR FA vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov, Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Devoni Ishlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Ilhom Faridun, Afg‘oniston Islom Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Madaniy aloqalar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Muhammad Rahim Pirzoda, O‘zbekiston-Afg‘oniston do‘stlik jamiyati raisi Abdurahim Mannonov tabrik so‘zi bilan ochib berdilar.

Ushbu simpoziumda malakatimiz olimlari bilan bir qatorda afg‘onistonlik mehmonlar ham ishtirok etdilar. Simpozium yakunida bu kabi tadbirlar O‘zbekiston hamda Afg‘oniston davlatlari o‘rtasidagi ilmiy, madaniy va ma’rifiy sohadagi aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlab o‘tildi.